

UDK:636.32/38.082.11.

## OLINGAN SUR RANGLI AVLODLARINING SIFAT KO'RSATKICHLARI

*H.I.Nomozov - tayanch doktorant*

*E.S.Shaptakov - ilmiy rahbar q.x.f.d., professor*

*Qorako'chilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti direktori*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sur rangli qorako'l qo'zilarining gul tiplari, sinfi hamda ushbu ko'rsatkichlarning rang tekisligiga bog'liqligi natijasida olingan ma'lumotlar biometrik tahlil natijalari keltirilgan va xulosalar qilingan.

**Kalit so'zlar:** sur rangli qorako'l qo'zilar, juftlash, gul tiplari (yarim doira, qovurg'asimon, yassi, o'siqgul) sinfi, elita, I sinf, yaroqsiz hamda rang tekisligi, a'lo tekis va notekis.

**Abstract:** This article presents the results of biometric analysis of the data obtained as a result of the color type and class of gray-colored Karakul lambs, as well as the dependence of these indicators on the color plane, and draws conclusions.

**Key words:** Karakul lambs of gray color, mating, flower types (semicircular, ribbed, flat, umbel) class, elite, class I, unfit and even color, excellent even and uneven.

**Kirish.** Qorako'chilik chorvachilikning cho'l regionlarida rivojlangan muhim tarmog'i hisoblanib, qorako'l qo'ylar turli rang, rangbaranglik va assortimentdagi qorako'l terilari gullarining naqshi, chiroyi va jozibadorligi bo'yicha tengsizdir.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda ko'k rangli qo'ylar bilan naslchilik ishlarini olib borishning asosiy yo'nalishi rang tekisligi yaxshi bo'lgan, maqsadga muvofiq tus va rangbarangliklardagi qo'ylarni ko'paytirish, gullarining teri yuzasidagi rasmlarining aniqligini, jun-tola qoplaminig sifatini yaxshilash, terilarning foydali satxini oshirish, qo'ylar hayotchanligini, tabiiy serpushtligini va irsiy xususiyatlarini oshirish hamda elita va I sinfga mansub bo'lgan avlodlarni ko'paytirish mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

**Tadqiqot maqsadi.** sur rangli avlodlar gul tiplari, sinfi hamda ushbu ko'rsatkichlarni rang tekisligi bilan bog'liqligini o'rganish tadqiqotning maqsadi hisoblanadi.

**Tadqiqotni bajarish joyi va usullari.** Tadqiqotlar Samarqand viloyati Paxtachi tumanidagi "Qarnab ota" qorako'chilik naslchilik MChJ da urchitiluvchi buxoro sur rangli qo'chqor va sovuqlarni juftlash natijasida olingan sur rangli avlodlarda oshirildi.

**Tadqiqot usullari:** Avlodlarni baholashda S.Yu.Yusupov va boshqalarning "Qorako'chilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarni baholash (bonitirovka

qilish) bo'yicha qo'llanma" (2015) hamda ma'lumotlarga matematik ishlov berishda variatsion statistika usullarida (N.A.Ploxinskiy, 1969) amalga oshirildi.

**Tadqiqot natijalari.** Sur rangli qorako'l qo'zilari rangbarangliklar, gul tiplari va sinflarga bo'linadi.

Ushbu ko'rsatkichlarning yuqori darajada na'moyon bo'lishi qo'zilarda qimmatli gul tiplarining shakllanishini ta'minlaydi va ular yuqori sinflarga taalluqli deb baholanadi.

Qorako'l qo'zi terilarining qiymati uning sathida qalamgul, donagul, yol gul jingalaklarining bo'lishi, ularning teri sathida tartibli joylashuvi va jun-tola qoplaminig sifatiga qarab belgilanadi.

Qorako'l qo'zilari teri sathida turli shakldagi yarim doira, qovurg'asimon, yassi qalam gullar qancha uzun va tartibli joylashgan bo'lsa, teri shuncha qimmatli hisoblanadi. Qo'ylarning nasliy qiymatligini belgilashda ularning sinflilik darajasi ham muhim ahamiyatga ega.

**Avlodlarning rang tekisligini gul tipi va sinflilik ko'rsatkichlari bilan bog'liqligi.** Bizga ma'lumki ushbu o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning seleksiyadagi o'rni juda yuqori hisoblanadi. Shunga monand ravishda rang tekisligining a'lo va tekis holatda bo'lishi avlodlarning qolgan ko'rsatkichlarining ham ma'lum darajada yuqori bo'lishi bizga ma'lum.

Olingan avlodlarni "Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma" siga asosan barcha ko'rsatkichlari baholanib bo'lgandan so'ng avlodlarni qaysi sinfga kirishi maxsus belgilar yordamida quloqlariga en solinib, bonitirovka jurnallariga qayd etib boriladi. Ma'lum bir muddat o'tgandan so'ng avlodlarning gul ko'rsatkichlari hamda jun-tola sifat ko'rsatkichlarni aniqlash imkoni bo'lmaganda ularning eksteryer va quloqlaridagi belgilariga qarab qaysi sinfga oidligi hamda tug'ilganda qanday ko'rsatkichlarda ega bo'lganligini bilishimiz mumkin. Shundan kelib chiqqan holatda tadqiqotlarimizda avlodlarnig rang tekisligi bilan sinf ko'rsatkichlarining qay darajada bog'liq ekanligi 1-jadval va 1-diagrammada umumlashtirildi.

1-jadval

Avlodlarning rang tekisligini gul tipi va sinfi bo'yicha bog'liqligi, % (X±S<sub>x</sub>)

Rang tekisligi	n	Gul tipi				Sinfi		
		Yarim doira qalam gul	Qovurg'asimon qalamgul	Yassi qalam gul	O'siq gul	Elita	I	Yaroqsiz
a'lo	42	47,6±7,7	35,7±7,4	16,7±5,7	-	80,9±6,0	19,1±6,0	-
tekis	57	63,3±6,4	17,5±5,0	19,2±5,2	-	5,3±2,9	94,7±2,9	-
notekis	21	-	-	-	100	-	9,5±6,3	90,5±6,3

Jadval tahlilga asosan, a'lo rang tekisligiga ega bo'lgan avlodlarda eng yuqori ko'rsatkich yarim doira qalam gul tipida bo'lib,  $(47,6 \pm 7,7)$  bu o'z navbatida qovurg'asimon va yassi qalam gul tipiga nisbatan 11,9 va 30,9 foizga yuqori ekanligi qayd etildi. Ushbu rang tekisligida o'siq gul tipidagi avlod uchramadi.


Rang tekisligining tekis holatida bo'lgan avlodlarda eng yuqori ko'rsatkich yarim doira qalam gul tipida bo'lib,  $(63,3 \pm 6,4)$  bu o'z navbatida qovurg'asimon va yassi qalam gul tipiga nisbatan 45,8 va 44,1 foizga yuqori ekanligi qayd etildi. Ushbu rang tekisligida ham o'siq gul tipidagi avlod uchramadi.

Xuddi shunday rang tekisligining notekis bo'lgan ko'rinishi ham tahlil qilinganda barcha avlodlar o'siq gul tipida oid ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holatda avlodlarning sinf ko'rsatkichi ham tahlil qilindi. Bunda a'lo rang tekisligiga ega bo'lgan avlodlarning 80,9 foizi elita, 19,1 foizi I sinfga oidligi qayd etildi.

Rang tekisligining tekis bo'lgan holatida esa olingan avlodlarning asosiy qismi I sinfga oid ekanligini ko'rishimiz mumkin. Elita 5,3 hamda I sinf 94,7 foizga ega bo'ldi.

Notekis rang tekisligiga ega bo'lgan avlodlarda esa 9,5 foiz I sinf qolgan 90,5 foiz qismi esa yaroqsiz sinfga oid ekanligini ko'rishimiz mumkin.



**Olingan avlodlarning rang tekisligini gul tipi va sinfi bo'yicha bog'liqligi, %  
1-diagramma.**

**Xulosa qilish mumkinki,** tadqiqotlar natijasi ma'lumotlarga asosan, avlodlar gul tipi va sinfi ko'rsatkichlari bilan rang tekisligi o'rtasida sezilarli darajada bog'liqlik mavjud. Shuni ham alohida aytish kerakki, rang tekisligi a'lo va tekis darajada bo'lgan avlodlarga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Buning natijasida maqsadga muvofiq bo'lgan avlodlar olish mumkin. Ushbu holatlarni seleksiya jarayonida e'tiborga olish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Nomozov H.I., Shaptakov E.S., Sur rangli avlodlar gul ko‘rsatkichlarining rang tekisligi bilan bog‘liqligi Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Bursa, Turkey Website: econfseries.com [https://econfseries.com/index.php/3\\_85-89](https://econfseries.com/index.php/3_85-89), 11<sup>th</sup> July, 2025
2. Yusupov S.Yu., Gaziyeu A. va boshqalar. “Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo‘zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo‘yicha qo‘llanma”. Toshkent 2015, 22 bet.
3. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва 1969.